

**Urazova Shaxnoza Shuxratovna  
Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani  
49-sonli mактабning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi**

## GRAMMATIK SAVODXONLIK

**Annotatsiya:** Maqlada o'quvchilar savodxonligini oshirishda orfografiyaning o'rni xususida so'z yuritiladi. Orfografiya bo'limi tilshunoslikning unga yondosh bo'lgan boshqa bo'limlari bilan bog'lab o'rganilishi, imlo qoidalari bo'yicha atroficha fikr yuritilgan. Nazariy ma'lumotlar misollar yordamida dalillangan.

**Kalit so'zlar:** Savodxonlik, orfografiya, orfoepiya, fonetika, morfemika.

### **KIRISH**

Orfografiya so'zi yunonchadan olingan bo'lib, orphos – 'to'g'ri', grapho – 'yozaman' so'zlaridan olingan bo'lib, to'g'ri yozmoq degan ma'noni anglatadi. Orfografiya atamasi 2 xil ma'noda ishlataladi. Orfografiyaning tilshunoslikning bo'limi sifatidagi ma'nosi tor ma'nosi hisoblanadi va bu bo'limda tilning to'g'ri yozish qoidalari o'rganiladi. Bu atamaning keng ma'nosi esa 'adabiy yozish qoidalari to'plami<sup>1</sup>'ga nisbatan orfografiya (imlo qoidalari) ishlataladi.

Orfografiya bo'limi tilshunoslikning orfoepiya, fonetika, morfemika va boshqa bo'limlari bilan bog'lab o'rganiladi. Uning orfoepiya bilan bog'liqligi imlo qoidalarni belgilashda talaffuzga nisbatan olinishida kuzatiladi. Fonetika bilan bog'liqligi tovush o'zgarishi hodisalarini orqali ko'rindi. Shunindek, morfemika, so'z yasalishi, morfologiya kabi bo'limlar bilan bog'liqligini asos va qo'shimchalarga, qo'shma so'zlarga oid imlo qoidalarda ko'rish mumkin.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Orfografiya va grafika ko'plab adabiyotlarda birgalikda o'rganiladi. Orfografiyaning grafikadan farqlab turuvchi belgilari quydagilardir: grafika bo'limi qoidalari grafemalarning mazmun planini (referentini) kodlashtirishni o'z ichiga olsa, orfografiya qoidalari esa ma'lum prinsiplar (orfografiya tamoyillari) asosida orfogrammalarni tanlashga asoslanadi. Orfografik qoidalarni tuzishda tilning ma'lum bir taraqqiyot bosqichi inobatga olinadi. Imlo qoidalari tilning taraqqiyoti davomidagi rivojlanishi natijasida o'zgarishlarga uchraydi. Shavkat Rahmatullayevning ko'rsatishicha, 'Hozirgi o'zbek adabiy tilining yozma ko'rinishi tartibga tushib qolgan. So'zlashuv nutqidagi rang-baranglikni bir xillikka keltirishda, shular orasidan birini adabiy me'yor darajasiga ko'tarishda, so'zlashuv nutqiga va adabiy nutqqa xos talaffuz bilan yozish orasidagi munosabatni to'g'ri belgilashda imlo qoidalaringin ahamiyati katta<sup>2</sup>'. Hozirga qadar tilimizning imlo qoidalari bir necha marta qabul qilinganligi bu fikrlarga asos bo'la oladi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng yozuv masalalari alohida ko'rib chiqildi va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tildi. 1995-yil 24-avgustda Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan „O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari” tasdiqlandi. U 7 bo'lim va 82 banddan iborat. Unda o'zbek tilidagi barcha imloviy me'yorlarga alohida e'tibor qaratilgan. Undagi barcha qoidalarni puxta o'zlashtirgan har bir inson o'zbek tilining boy imkoniyatlarini o'rgangan holda imloviy savodxonlikka erishadi.

O'quvchilarning imloviy savodxonligi birdaniga shakllanib qoladigan jarayon emas. Chunonchi, imlo savodxonligi ona tili darslari davomida ketma-ket, uzviy bog'langan holda olib boriladi. Darsliklarga e'tibor beradigan bo'lsak, imlo uchun ayni bir mavzular kiritilmagan, lekin shunday mavzular, topshiriqlar, mashqlar borki, o'z-o'zidan o'quvchilar ularni imlo qoidasini o'zlashtirmay turib bajarishga qiynaladilar. Grammatik nazariyaga bog'liq berilgan qoidani yaxshi o'zlashtirganlar esa lug'atdagi har bir so'zni yodda saqlab, xotiralariga mustahkamlab oladilar.

Grammatik, fonetik va so'z yasalishiga doir nazariy tushunchalarni ma'lum darajada o'rganmay turib, imlo qoidalarini o'zlashtirish qiyin, chunki grammatik nazariya imlo qoidalari mohiyatini ochadigan kalitdir. Shuning uchun ham imlo qoidalari grammatik nazariyasiz o'rgatish juda qiyin. Masalan, o'quvchilar «a» yoki «o» unlisidan mosini qo'yishi zarur bo'lgan so'zlar berilgan mashqni bajargach, ularga ayrim so'zlarda «a» unlisining «o» tarzida talaffuz qilinishi mumkinligi ,biroq asliga ko'ra «a» unli yozilishi haqidagi qoida aytib o'tiladi. Binobarin, ona tili darsligidan joy olgan kelishiklar mavzularini o'rgatish jarayonida ularning imlosiga oid qoidalarni aytib o'tish zarur.

Binobarin, kelishiklar birma-bir o'zlashtirilishi jarayonida kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqidagi ko'nikma shakllantiriladi. Masalan, chiqish kelishigi mavzusida bu kelishikning qo'shimchasidan bo'lib, bu qo'shimchani olgan so'zlar kimdan?, nimadan?, qayerdan? so'roqlariga javob bo'lib gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasini bajarishi to'g'risidagi qoidalarni tushuntirilgach, uning imlosiga doir quyidagilarni aytib o'tish zarur:

1. Chiqish kelishigi unlilar va y,m,n,ng kabi jarangli undoshlardan keyin kelganda –dan tarzida aytildi va shunday yoziladi: uydan, onamdan, nondan, taomdan kabi.
2. Chiqish kelishigi qo'shimchasi jarangsiz undoshlardan keyin va ayrim so'zlar oxirida keluvchi jarangli undoshlardan so'ng - tan tarzida talaffuz qilinadi, lekin asliga ko'ra -dan yoziladi. Masalan, Otdan (ottan) baland, itdan (ittan) past.

O'quvchilar qoidani mustahkamlash uchun berilgan darslik mashqlarini o'qituvchi aytgan qoidalarni asosida to'g'ri bajarishni odat qilsa, orfografik bilimlarni ongli qabul qilishga muvaffaq bo'ladilar.

O'qituvchiga qo'yiladigan talab esa imloni o'rgatish birmuncha murakkab jarayonligini hisobga olib, o'quvchilar o'rgangan qoidasini yozuvda qo'llay olishi uchun qulay usullarni tanlashi kerak. Darslikda berilgan mashqlardan kelib chiqqan holda o'quvchilarga qiziqarli mustaqil topshiriqlar berishi kerak. Masalan, o'tgan zamon fe'li o'rganilganda, quyidagi imlo qoidalarni bilish tavsiya etiladi:

1. O'tgan zamon fe'lining qo'shimchasi -di jarangsiz undoshlardan so'ng -ti tarzida aytildi, ammo -di yoziladi: *aytti — aytdi, tushti — tushdi*.
2. O'tgan zamon fe'lining qo'shimchasi -gan jarangsiz undoshlardan keyin -kan tarzida aytildi, ammo -gan yoziladi. Masalan: eshitkanman-eshitganman, keskan-kesgan, tushkansan-tushgansan, bitkanmi-bitganmi va h.k.
3. gan qo'shimchasi «q» undoshi bilan tugagan fe'llarga qo'shilganda -qan shaklida, «k» undoshi bilan tugagan fe'llarga qo'shilganda -kan tarzida aytildi va shunday yoziladi: *chiq-chiqqan, boq-boqqansiz, cho 'k-cho 'kkan*.

Ushbu qoidaga muvofiq nuqtalar o'rniqa qavs ichida berilgan qo'shimchalardan mosini qo'yib terma gaplarni ko'chirish mashqi tavsiya etilgan bo'lib, o'quvchilar uni o'qituvchi nazorati ostida mustaqil bajaradi va qoidaning mohiyatini anglashga e'tibor kuchaytiriladi:

1. Ular ovga Bayotni ham olib ketish...(-ti, -di).

2. Hazrat Abu Ali ibn Sino fursatlari tig'iz bo'lgan kezlarda ham g'azal bit... (*-kan*, -gan)lar. (Sayyor)

Shunday qilib, mavzularga bog'lab o'zlashtiriladigan imlo qoidalari o'quvchilarda u haqdagi aniq tasavvurning mavjudligiga bog'liq bo'ladi. Bu esa so'zlarda zohir etiladi. Shuning uchun o'quvchilardan qoidani quruq yodlab kelish talab qilinmasligi, balki uni orfografik jihatdan to'g'ri yozish xususiyatlarini ishonchli manba vositasida qayta tushuntirilishi kerak.

Imlo qoidalarini muntazam o'rghanish o'quvchilarda kuzatuvchanlikni tarbiyalaydi, nutq madaniyatini takomillashtiradi, fikrlash qobiliyatini o'stiradi, lug'atini boyitadi, savodli yozish malakasini mukammallashtiradi.

O'quvchilar imloviy malakasini shakllantirish metodikasini o'qituvchi imloviy malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib tanlaydi. Imloviy malaka ham nutqning maxsus malakasi hisoblanadi. To'g'ri yozish esa maxsus nutq faoliyatidir. Bundan yozuvning ham murakkab harakatligi kelib chiqadi hamda uning asosida ham nutq yotadi. Imloviy malakaning yana shunday xususiyati borki, u nutq faoliyatining bir qismi sifatida gapi sintaktik jihatdan to'g'ri tuza olish, so'zlarni hamda uning shakllarini uslubiy jihatdan to'g'ri qo'llashni ham qamrab oluvchi tushunchadir. Imloviy malaka uzoq davom etadigan jarayondir. U mashqlar bajarish jarayonida shakllantiriladi. Imloviy malakaning asosi so'zni fonetik jihatdan to'g'ri tahlil qilishni, morfemik tarkiblarini aniqlashni nazarda tutadi. Psixologiyada bu avtomatik harakat tarzida qabul qilinadi. Chunki bunday malaka mashqlar natijasida avtomatlashgan ongli harakat o'tib qoladi. Avtomatlashish jarayonining qanday bo'lishi o'rghanilayotgan imlo qoidasining oson yoki qiyinligiga bog'liq bo'ladi.

Yuqorida ham ta'kidlab o'tilganidek, imlo savodxonligini shakllantirish Grammatik nazariyani bilishga borib taqaladi. Imlo qoidalari ma'lum bir so'zninggina emas, balki umumiyligi mavjud bo'lgan so'zlarning yozilishini tartibga solib turadi. Uning bu xususiyati yordamida har bir so'zning yozilishini yodda saqlashdan qochilib, belgilangan qoida asosida unga oid barcha so'zlarni yoza olishga sharoit yaratadi. Grammatik jihatdan umumiylikka ega bo'lgan so'zlarning yozilishini bixillashtirish ham imlo qoidasining asosidir.

## XULOSA VA MUNOZARA

Qoidalalar ustida ishslash metodikasi uning xarakteridan kelib chiqib belgilanadi. Misol uchun deduktiv yo'l bilan fe'llardagi bo'lishsizlik qo'shimchasi o'rgatilsa, induktiv yo'l bilan jo'naliш kelishigi qo'shimchasining imlosi tushuntirilishi mumkin. Bundan tashqari yana qoidani o'rgatishda asosiy fikr nima ekanligini ajratib olishga o'rgatilishi kerak. Shunda ularning o'zlashtirishlari oson bo'ladi. Natijada ular aniq material bilan ishlab, uni tahlil qilib muhim qismlarga ajrata oladilar va qoidani ongli o'zlashtiradilar. O'quvchilarda bir-biriga taqqoslash ham o'rgatilishi kerak. Bu nima uchun kerak degan savolga esa so'zlarning talaffuzi va yozilishini, so'z turkumlarini, so'z qismlarini bir-biriga taqqoslash o'quvchining aqliy faolligini ham oshiradi. O'quvchilarning qoidadagi muhim fikrni ajratib olishlariga bevosita o'qituvchi berayotgan savollar ham yordam berdi. Qoida ustida mustaqil ishslashdan tashqari guruh va jamoalarda ham ishslash mumkin. Qaysi birini tanlash esa o'qituvchining tanlagan metodidan kelib chiqib olib boriladi. Yangi qoidalarni o'zlashtirish jarayoni o'rganilgan bilimlarga suyanib, yangi qoida ilgari o'rganilgan qoidalalar bilan uzviy bog'lashni talab etadi. Misol uchun tushum kelishigi imlosini tushuntirish uni qaratqich kelishigi bilan o'xhash va farqli jihatlarini ajratish, ularni bir-biriga taqqoslash yordamida o'rgatiladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. O'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir // <https://religions.uz/news/detail?id=1227>
2. Tarbiya / Ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya. Tuzuvchi M.N.Aminov, mas'ulmuharrir A.M.Majidov. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2010. – 528 b.
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – T.: "Fan", 2018. – 160 b.
4. Usmonov S. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning pedagogik asoslari: Ped. fanl. nomz diss. avtoref. – T.: 2014. – 24 b.
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)